

Mangulik mezoni

O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan 2018 yil 28 yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Gidromelioratsiya" fakulteti dekan farmoyishiga binoan "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasи tomonidan 4-sonli talabalar turar joyida "Mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti" mavzusiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbir mas'ullari dotsent Shavkat Botirov, Aleksandr Dolidudko, Dilbar Abduraimova, stajyor o'qituvchi Maxbuba Xayitova, stajyor o'qituvchi Shoxrux Azizov hamda tarbiyachi pedagog Javlonbek Qutlimurotovlar tomonidan ushbu tadbirda Birinchi prezidentimiz Islom Karimov hayoti, siyosiy faoliyati va boshqaruv mahorati haqida ma'lumotlar berildi .

Tadbirda talabalar o'zlari qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar va o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.



4-TTJ tarbiyachi pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov